© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

YOSHLAR TAOMLANISH MADANIYATI TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY OQIBATLARI

Yodgorova Sarvinoz Musalimxon qizi
MirzoUlug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti,
Etnologiya, etnografiya va antropologiya
yodgorovasarvinoz9@gmail.com

Kirish. Bugungi kunda an’anaviy “Dasturxon instituti”ning zamonaviy texnologik va global ijtimoiy voqelik bilan to‘qnashuvi yoshlar hayotida murakkab transformatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Farg‘ona vodiysi yoshlari misolida kuzatilayotgan ushbu jarayonlar faqatgina maishiy qulayliklar bilan cheklanmay, asrlar davomida shakllangan ijtimoiy munosabatlar tizimiga, yoshlarning iqtisodiy xulq-atvoriga va biologik salomatligiga qator xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu bois, mazkur o‘zgarishlarning ziddiyatli (ambivalent) oqibatlarini kompleks sotsiologik tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. Farg‘ona vodiysi yoshlari o‘rtasida ommalashayotgan yangi gastronomik turmush tarzining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlarini aniqlash, shuningdek, yoshlarda “gastronomik immunitet”ni shakllantirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida sotsiologik so‘rovnoma va dala kuzatuvlari (jumladan, Farg‘ona, Namangan va Qo‘qon shaharlaridagi umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi 50 soatlik xronometraj) qo‘llanildi. Tahlillarda amerikalik iqtisodchi T. Veblenning “Namoyishkorona iste’mol” va I. Pavlovskiyning “Hududiy-biologik moslashuv” nazariyalariga tayanildi.

Tadqiqotning asosiy qismi va tahlillar. O‘tkazilgan empirik tadqiqotlar transformatsiya jarayonlarining uchta asosiy yo‘nalishdagi oqibatlarini namoyon etdi:

1. **Ijtimoiy-biologik oqibatlar:** Dasturxon atrofidagi jismoniy yaqinlik saqlanib qolsa-da, “Atomizatsiya” (ruhiy va kommunikativ uzilish) jarayoni kuchaymoqda. Kuzatuvlarga ko'ra, yoshlarning 74 foizi ovqatlanish vaqtida smartfondan foydalanadi. Fiziologik jihatdan esa mintaqa iqlimiga “yot” bo‘lgan quruq fast-fud mahsulotlarining (48%) muntazam iste'moli yoshlar orasida oshqozon-ichak kasalliklarining 2,5 barobar ortishiga, choy o'rnini energetik ichimliklar (60%) egallashi esa jamoaviylik o'rniga individualizm va sabrsizlikning shakllanishiga olib kelmoqda.
2. **Iqtisodiy oqibatlar:** Yoshlar o‘rtasida taomga nisbatan ratsional yondashuv o‘rnini “Namoyishkorona iste’mol” (Conspicuous Consumption) egallagan. Qimmatbaho brend qahva yoki “trenddagi” shirinliklar ehtiyoj uchun emas, ijtimoiy tarmoqlarda vizual maqom (status) ko‘rsatish uchun xarid qilinmoqda. Shu bilan birga, jarayonning ijobiy iqtisodiy oqibati sifatida mahalliy “gastronomik turizm” rivojlanib, yoshlarning tabiiylikni izlashi (“nostalgiya effekti”) mahalliy iqtisodiyotga foyda keltirmoqda.
3. **Madaniy oqibatlar:** Non va milliy taomlarga nisbatan muqaddaslik tushunchasi o'zgarib, iste‘molchilik (isrofgarchilik) madaniyati va mavsumiylik hissi yo‘qolmoqda. Biroq, bunga javoban global oziq-ovqat tarmoqlarining “Halol” standartlariga o'tishi kuzatilib, bozorda gibrid mahsulotlar (Halol fast-fud) paydo bo‘lmoqda.

Xulosa. Farg‘ona vodiysi yoshlari taomlanish madaniyati kelgusida “Glokalizatsiya” (Global shakl + Lokal mazmun) yo‘nalishida rivojlanadi. Tadqiqot ko‘rsatdiki, an'anaviy bayramlar (Navro‘z, Hayit) va oilaviy muhit (“social norms”) globallashuv bo‘ronida milliy o‘zlikni saqlab qoluvchi asosiy langar vazifasini o‘tamoqda. Shu sababli, yoshlarda “gastronomik immunitet”ni shakllantirish,

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

ularni ham ma'naviy qadriyatlarni asrashga, ham salomatlikka zarar yetkazmaydigan ongli iste'molga o'rgatish bugungi kunning strategik vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Veblen T. The Theory of the Leisure Class: An Economic Study of Institutions. – New York: Macmillan, 1899.
2. Pavlovskiy I. V. Eda kak atribut kulturno-prostranstvennix koordinat. – M.: MGU, 2015.
3. Smetanina K. Yu. Gastronomicheskie traditsii v prostranstve massovoy kulturi. – M.: MGU, 2015.
4. McLean, J. E. The Taste of Place and the Nature of Trust: Natural and Heritage Foods in Post-Socialist Kazakhstan. – University of California, 2017.